

Ziyoratning ziyosi

Talabalar ong-u tafakkurining rivojida o'zi o'qigan va eshitgan ma'lumotlaridan tashqari o'zi ko'rib xulosa chiqazgan holatlarning o'rni bo'lakcha. Har bir insonning o'z umri mobaynida yetkazgan manfaati bois xalqining tarixiy taqdirida muhim o'rinni tutishi xayrlikdir. Tarixiy siymolar, davlat arboblarining barhayotlik belgisi ham shunda.

Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti, "Gidromelioratsiya" fakulteti, "Suv xo'jaligi va melioratsiya" ta'llim yo'nalishi, 1-bosqich, 102-guruh talabalari guruh murabbiyi Sh.H.Mardihev rahbarligida O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti Islom Abdug'aniyevich Karimov xotirasini yod etib, "Islom Karimov nomidagi ilmiy-ma'rifiy memorial majmua"ga tashrif buyurishdi. Tashrif davomida Birinchi Prezidentimiz monumenti poyiga gul qo'yilib, ulug' insonning beqiyos xizmatlari aks ettirilgan fotosuratlar, videolavhalar talabalarda katta qiziqish uyg'otdi.



"Irrigatsiya va melioratsiya" kafedrasи assistenti Sh.H.Mardihev ma'lumoti

Institut matbuot kotibi Rahimboy Jumaniyozov